



ALALIYALI BOLALARDA FAZOVIY MUNOSABATLARNI IDROK ETISH TUSHUNISH VA OG'ZAKI NUTQDA AKS ETTIRISHNI O'RGANISH USULLARI

Toshkent davlat pedagogika universiteti
3 kurs-doktoranti Abdullayeva S.N

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233561>

Anotatsiya. Alaliyali bolalar, ya'ni fazoviy munosabatlarni to'liq anglamaydigan bolalar, asosan jismoniy yoki aqliy rivojlanishidagi cheklovlar bilan yuzma-yuz kelishadi. Ularning fazoviy munosabatlarni aks ettirish va tushunishdagi qiyinchiliklari turli metod va usullarni talab qiladi. Maxsus pedagogika sohasida, bu bolalarga fazoviy tushunchalarni o'rgatish uchun o'zgacha yondashuvlar va texnikalar ishlab chiqilgan. Ushbu usullar orasida vizual yordamlar (rasmlar, diagrammalar, modellar), jismoniy mashqlar (gorizontal yoki vertikal harakatlar) va sensor yondashuvlar (teginish, hissiy tajribalar) alohida ahamiyatga ega. Bolalarni fazoviy tushunchalar bilan tanishtirishda, ularning hissiy rivojlanishiga e'tibor berish, o'quv jarayonida o'ziga xos vizual va motorik yordamlar berish zarur. Ta'limda qo'llaniladigan innovatsion metodlar orqali, alaliyali bolalar fazoviy munosabatlarni yaxshiroq tushunishga va ular bilan samarali muloqot qilishga erishadilar. Maxsus pedagogikada fazoviy munosabatlarni aks ettirishning maqsadi nafaqat bolalar uchun yangi bilimlar yaratish, balki ularni jamiyatda erkin va mustaqil harakat qilish imkoniyatiga ega qilishdir. Bu jarayon bolalarning harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish, so'zlashuvni yaxshilash va o'zaro ijtimoiy munosabatlar o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar : Alaliya ,tasavvur, idrok ,makon, vaqt, metodika, buzilish, predmet nazorat, tovushlar, markaz, natija.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlariga tanlab olingan o'quvchilarning og'zaki nutqida predmetlar o'rtasida makon munosabatlarini anglatadigan so'zlarning tushunilishi va ifodalanishi masalasini batafsil o'rganish ko'zda tutildi. Xuddi shu o'quvchilarning o'zlarida oddiy figuralar seriyasi hamda Rey-Teylorning murakkab fazoviy figuralaridan nusha ko'chirish yordamida ko'rish-fazoviy tasavvurlarni o'rganish rejalashtirildi.

O'quvchilarning og'zaki nutqlarida fazoviy munosabatlarning tushunilishi va ifodalanishi I.N.Sadovnikova va L.S.Svetkova [190 ,236] tomonidan maxsus ishlab chiqilgan metodika bo'yicha o'rganildi.

Metodika oltita blokdan iborat bo'lib, har bitta blokka -1-2 tadan vazifa kiritildi. O'quvchilar jami 72 ta vazifani bajarishlari talab qilindi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda quyidagi jihatlar o'rganildi: ko'makchilarning tushunilishi va qo'llanishi; o'z tanasi sxemasini tushunishi va bilishi; qarshisida turgan kishining tanasini tushunishi va bilishi; 180° ga o'girilgan qog'oz varag'i ustida ish olib borishi.

Tekshiruv metodikasi quyidagi predmetlardan foydalanishni talab qiladi: varaqning turli burchaklarida predmetlar tasviri tushirilgan rasmlar; qo'l panjasi va oyoq kaftlari tasvirlangan rasmlar; 9 ta kvadrat chizilgan va markaziy kvadratda krest "+" tasvirlangan varaqlar; park tasvirlangan rasmlar; turli rangdagi to'rt burchak qog'ozlar skameykalar tasvirlari bilan; daraxtning va uning atrofida joylashgan hayvonlarning rasmi. Quyida o'quvchilar uchun tayyorlangan vazifalarni keltiramiz..

I. Ko'makchilar (rasmlar bo'yicha).

Ko'rsatma: «Ko'rsat...»

1. Daraxt ustida nimani ko'rayapsan?
2. Daraxt yonida nima turibdi
3. Daraxt tagida nimani ko'rayapsan?
4. Daraxt oldiga kim bordi?
5. Daraxt ustida nima o'tiribdi ?
6. Daraxt bargida nima o'rmlab ketayapti?



7. Daraxt oldida kim turibdi?

8. Daraxt ustidan nima tushdi?
9. Daraxt orqasida nima bor?
10. Daraxt ichidagi kovakda nima yashaydi?
11. Daraxt kavagidan nima chiqib keldi?
12. Daraxt kavagidan nima qarab turibdi?

II. Ko'makchilarning qo'llanishi.

Ko'rsatma: «Ayt-chi...»

1. Chelak ichida nima bor? (Suv, baliq ...)
2. Qo'ziqorin qayerda o'sadi? (yer tagida)
3. Kuchuk qayerda yotadi? (inining ichida)
4. Mushuk qayerga chiqdi? (daraxt ustiga)
3. Olmaxon qayerda o'tiribdi? (daraxt ustida)
5. Sichqon qayerdan chiqib keldi? (yer tagidan)
6. Tipratikon qayerda o'tiribdi? (tosh ustida)?
7. Barglar qayerdan to'kilayapti? (daraxt shohidan)
8. Maktabdan kimlar kelayapti? (Baxodir bilan Dilshod)
9. Chorshanbadan oldin qanday kun keladi?
10. Kitobning ustida nima turibdi? Ruchka
11. Jumadan keyin qanday kun keladi?

III. O'z tanasi sxemasini tushunishi.

1. Chap qo'lingni ko'rsat.
2. O'ng qo'lingni chap yelkangga qo'y.
3. O'ng qo'lingni ko'rsat.
4. Chap qo'lingni tepaga ko'tar, o'ng qo'lingni esa oldinga uzat.
5. Chap ko'zingni ko'rsat.
6. Ayt-chi, bu qaysm qo'ling? (Tajriba o'tkazuvchi bolaning chap qo'lini ko'rsatadi).
7. Chap qulog'ingni ko'rsat.
8. Bu qaysi qulog'ing? (Tajriba o'tkazuvchi bolaning o'ng qulog'ini ko'rsatadi).
9. Chap qo'lingni o'ng oyog'ingga olib bora.
10. Ayt-chi, bu qaysi oyog'ing? (Tajriba o'tkazuvchi bolaning o'ng oyog'ini ko'rsatadi).
11. O'ng qo'lingni chap chap qulog'ingga olib bor.
12. O'ringdan tur va deraza tomonga o'giril. Ayt-chi, sen qaysi tomonga o'girilding?

IV. Ro'parada turgan odamning tana sxemasini tushunish..

1. Mening chap qo'limni ko'rsat.
2. Qaysi qo'limni tepaga ko'tarib turibman?
3. Qaysi qo'lim bilan o'ng qulog'imni ushlab turibman?
4. Qaysi qo'limni yelkamga qo'ydim?
5. Qaysi qo'lim bilan chap tizzamni ushlab turibman?
6. O'ng qo'lim bilan nima qilsam, sen ham o'ng qo'ling bilan shunday qili, chap qo'lim bilan nima qilsam, sen ham chap qo'ling bilan shunday qil (tajriba o'tkazuvchi kaftining orqa tomoni bilan iyagini pastdan silaydi).
7. Qaysi qo'lim stol ustida turibdi?
8. Tajriba o'tkazuvchi chap qo'lini yelkasiga qo'yadi.
9. Ayt, qaysi oyog'im tepada?
10. Tajriba o'tkazuvchi chap qo'lining barmoqlarini tikka turgan o'ng qo'lining kaftiga tiraydi.

11. Qaysi yelkamga boshimni o'girdim?

12. Mening qaysi qo'limning barmoqlari musht bo'lib turibdi? (Tajriba o'tkazuvchi musht qilib bukilgan o'ng qo'lini tikka turgan chap qo'lining kaftiga tiraydi).

V. Qog'oz varag'ining yuzida ishlash.

1. Ustki chap burchakda nimaning rasmi tasvirlanganini aytib ber.
2. Uchburchakdan chap tomonda doirachani chiz.



3. Pastki o'ng burchakda nimaning rasmi chizilganini ko'rsat.

4. nuqtaning o'ng tomonida uchburchak chiz.
5. Ustki o'ng burchakda nimaning rasmi chizilganini ko'rsat.
6. Doiracha tagiga ilon izi chiziq chiz.
7. Olmaxonning surati qaysi burchakda chizilgan?
8. "Bog'da sayr". Boladan skameykalarni yo'lining ikki tomoni bo'ylab qator qo'yib chiqish so'raladi: «Qizil skameykani o'ng tomonga qo'y».
9. Ko'rsat keyingi oyog'ingni.
10. Ayt-chi, men yashil skameykani yo'lining qaysi tomoniga qo'ydim?
11. Krestik tepasiga nuqta qo'y. (Bolaga 9 ta kvadratga bo'lingan va markaziy kvadratda krestik qo'yilgan qog'oz beriladi).

12. Uchta archa yo'lining qaysi tomonida o'sayapti?

IV. 180° ga o'girilgan qog'oz varag'ida ishlash.

"Bog'da sayr" nomli rasm asosida.

1. «Rasmga qarab, hayolingda bog' yo'ldan orqaga qaytayapman deb o'yla, shunda yashil skameyka sendan qaysi tomonda turgan bo'ladi?»

2. Sen orqangga qaytayotgan yo'lining o'ng tarafadi nechta archa o'sadi?

2. Qizil rangli skameyka sening qaysi tomoningda joylashgan?

3. Sendan chap tarafda turgan uchinchi archani ko'rsat-chi..

4. Ayt-chi, ko'k rangli skameyka sening qaysi tomoningda turibdi?

5. Ayt-chi, kapalak yo'lining qaysi tomonida uchib yuribdi?

6. Apelsin rangli skameyka sening qaysi tomoningda turibdi?

7. O'ng oyoqning izi qaysi tomondaligini top-chi.

8. Sen yo'ldan ketib borayapsan, men easa sendan uchinchi skameykada o'tiribman, men qayerda o'tirganimni ko'rsat-chi.

11. Chap qo'lining izini ko'rsat.

12. O'ng tomondagi birinchi skameykada bir buvi o'tiribdi, shu skameyka qayerda turganini ko'rsat-chi.

13. O'ng qo'lingning ko'rsatkich barmog'i qaysi?

Natijalarni baholash. Vazifalarga javobni o'quvchilar og'zaki shaklda yoki amaliy harakatlar vositasida berishlari kerak.

Baholar natijalari ballarda hisoblandi.

1 ball – vazifa to'g'ri va tez bajarildi;

0,5 ball – vazifa to'g'ri ammo sekin bajarildi (latent davr 6 soniyadan ortiq), yoki xatoga yo'l qo'yildi, ammo bola keyin uni o'zi to'g'riladi;

0,25 ball – maxsus yordam olinganidan keyin to'g'ri javob berildi («Bu noto'g'ri, yana o'lab ko'r »); 0 ball – ko'plab qo'pol xatoolarga yo'l qo'yildi, taklif qilingan yordamdan foydalana olinmadi, bola javob berishdan bosh tortti.

Maksimal ballar miqdori - 72. Absolyut qiymat foizda ifodalandi va bu ko'rsatkich metodika vazifalarini bajarishda muvaffaqiyatlilikning to'rta darajasidan biriga muvofiqlashtirildi:

IV daraja - 100-80%; II daraja - 64,9-50%;

III daraja - 79,9-65%; I daraja - 49,9% va pastroq.

Ko'rish-fazoviy tasavvurlarning tekshirilishi neyropsixologik testlardan foydalangan holda olib borildi: Denmann testi, Teylor testi [198,202]. Mazkur metodikadan foydalanish alaliyali bolalar tomonidan obyektning tuzilmaviy-topologik, metrik va kordinat xususiyatlarining idrok etilishi va ifodalanishini baholash imkonini berdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2011. 600 b.
2. Ayupova M.Y., Aripova Sh.D. To'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz.//Metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2015. 236 b.
3. Jukova N.S., Mastjukova YE.M. Yesli Vash rebenok otstayet v razvitii. – M.: Meditsina, 1993. 112 b.



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA
ISTIQBOL" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



4. Mironova S.A. Razvitiye rechi doshkolnikov na logopedicheskix zanyatiyax.
– M.: Prosvesheniye, 1991. 208 b.